

Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, PhD.
ozodasobirova1984@gmail.com

TALABALARDA MEDIA VA AXBOROT SAVODHONLIGI KO'IKMALARINI MUSTAXKAMLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada “media”, “savodxonlik”, “mediasavodxonlik” tushunchalarining mazmuni va mohiyati, talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik zaruriyat ekanligi xususida so‘z yuritilgan bulib talabalar turli sohalarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega va shu bilan birga ko‘nikma va qobiliyatlari darsning tarbiyaviy maqsadlari, shuningdek, shaxsiy maqsadlarga erishishda rivojlanish, tizimli va maqsadli amalga oshiriladi. Talabalar undan ehtiyotkorlik bilan foydalanishlari, mediasavodxonlik bo‘yicha bilim, munosabat va ko‘nikmalarni shakllantiradilar.

Kalit so‘zlar: media savodxonligi, media ta’lim, media kontent, mediatizatsiya, raqamli, vizual, kommunikatsion.

Озода Сабирова Шермахаматовна
Наманганский инженерно-технологический институт, PhD.
ozodasobirova1984@gmail.com

УКРЕПЛЕНИЕ НАВЫКОВ МЕДИА И ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация: Учащиеся имеют большие возможности для развития в различных областях, при этом их навыки и умения развиваются, систематически и целенаправленно реализуются для достижения образовательных целей урока, а также личных целей. В этой статье учащиеся будут развивать знания, отношения и навыки медиаграмотности, используя их осторожно. Это помогает решить проблемы цифровой эпохи и воспользоваться возможностями, предоставляемыми постоянно меняющимся медиа-ландшафтом.

Ключевые слова: медиаграмотность, медиаобразование, медиаконтент, медиатизация, цифровая, визуальная, коммуникация.

Ozoda Sabirova Shermakhamatovna
Namangan Institute of Engineering and Technology, PhD.
ozodasobirova1984@gmail.com

STRENGTHENING STUDENTS' MEDIA AND INFORMATION LITERACY SKILLS

Abstract: Students have great opportunities for development in various areas, while ix skills and abilities are developed, systematically and purposefully implemented to achieve educational goals, as well as personal goals. And this state students will develop knowledge, attitudes and media literacy skills using ix acutely. This helps address the challenges of digital epoxy and take advantage of the opportunities presented by the ever-changing media landscape.

Key words: media literacy, media education, media content, mediatization, digital, visual, communication.

1 KIRISH

So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma’lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi media savodxonlikka ega bo‘lish zaruratini yanada oshirdi. An’anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan. Bugun media savodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Bugungi raqamli davr muammolarini hal qilishda va doimiy o‘zgaruvchan media landshafti taqdim etgan imkoniyatlardan foydalanishda yordam beradi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug‘lik tezligida butun dunyo bo‘ylab sayohat qilishi, yolg‘on, fitna nazariyalari, noto‘g‘ri ma’lumotlar ham shunday bo‘lishi mumkin. Internetdagi yolg‘on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin.

Xuddi shunday zamonaviy inson eng ko‘p vaqtini sarflayotgan, hayot kechirayotgan media muhitda xavfsiz yashashi uchun ham u o‘zi faoliyat olib borayotgan, hayotiy zarur qarorlar qabul qilishiga ta’sir etayotgan muhitning o‘ziga xosliklaridan xabardor bo‘lishi ushbu muhitda xavfsiz yashashi uchun muhim zaruratdir.

2 Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab asosiy yumushlaridan biri, dastlab imo-ishora, keyinchalik esa nutq rivojlangandan so‘ng so‘zlashuv orqali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘ydi. Bundan kelib chiqadiki, insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab media bilan hamnafas yashab kelmoqda. O‘qish, yozish qobiliyati kabi bu juda muhim ko‘nikma bulganligi sababli bugungi kunda odamlar media dunyosida yashaydilar, turli axborot manbalaridan foydalanadilar.

Hozirgi zamonda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o‘tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan

o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarning o'quv dasturlariga kiritilgan edi. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik, mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan [1].

Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot va yangi raqamli media va o'quv vositalarining keng tarkdlihi, media savodxonlikning ahamiyati tobora ortib borishiga olib kelmokda. Bugungi kunda media savodxonlik deyarli butun dunyo ta'lim tizimida eng asosiy kompetentsiyalardan biri deb tan olinmokda.

Fresno Tinch okeani universiteti ma'lumotiga ko'ra, "Mediasavodxonlik talabalarga ommaviy axborot vositalarining dono iste'molchilari, shuningdek o'z ommaviy axborot vositalarining ma'suliyatli ishlab chiqaruvchilari bo'lishiga yordam beradi. Xuddi shu yo'nalishda mediasavodxonlikni o'rgatish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash turi oxir oqibat insonning ikkinchi tabiatiga aylanishi mumkin, bu ularga ulg'aygan sari ko'p sohalarda yordam beradi". Auditoriyada talabalarning media va yangiliklar savodxonligi ustida ishlashi o'z hayotining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo'lishiga yordam beradi. Axborot jamiyati bugungi kunda zamonaviy universitet oldiga ko'plab muammolarni qo'ymoqda. Internet va zamonaviy texnologiyalar nafaqat ma'lumotlarni yetishmasligini to'ldirdi, ortiqcha vaqt sarfining oldi olindi an'anaviy ta'lim normalarining jiddiy raqobatchisiga aylandi. O'qituvchi va talabalar oldida doimiy ravishda o'z media kompetensiyasini oshirish uchun yangi resurslarni izlashga majbur bo'lmoqdalar.

Ayniqsa, bugun mediatizatsiya hayotimizga chuqur va tezkor kirib borayotgan, ma'lumotlar hajmi tobora ortib borayotgan yangi global davrga kirib borishimiz jarayonida insonning ishonchli axborotga nisbatan ehtiyoji tobora, soniyalar sari ortib bormoqda. Axborot makonining globallashuvi, ochiqligi va ommaviy kommunikatsiyaning kuchayishi natijasida axborotlar inson ongu shuuriga shiddat bilan oqib kelmoqda. Insoniyat iste'mol qiladigan mahsulotlar ichida eng xaridorgiri – axborotdir. Unga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lgan.

MUHOKAMA

Talabalarda media va axborot ko'nikmalarini rivojlantirish ilg'or mediakompetensiyani talab qiladi. O'qituvchilar auditoriyada multimediya proyektoridan (bugungi kunda kamdan kam hollarda taqdimotsiz ma'ruza qilinadi), videomateriallardan, interaktiv doskadan faol foydalanadilar. Ba'zi o'qituvchilar muloqot qilish uchun ijtimoiy sahifa ochdilar va o'quvchilar uchun so'ngi ma'lumotlarni joylashtirdilar. Bunda onlayn jamiyat a'zolari professional rivojlanish uchun foydalanishadi.

Media ta'lim - bu texnologiya olamiga olib boradigan yo'l, busiz buni tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi sharoitda, uning o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borishi axborotga bo'lgan talabning yuqoriligi, nafaqat uni uzatish vositalari, turlariga, balki axborotning asosiy vazifasi, mazmun-mohiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti.

Shu bois bu jarayonda uzatilayotgan axborotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi u qadar e'tiborga olinmayapti. Insonlarning axborot jamiyati hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, kunikma va kursatmalar zarur. Tez-tez qo'llaniluvchi «savodxonlik» atamasi bugunda «raqamli», «kompyuter», «vizual», «texnologik», «kommunikatsion» va albatta, «media» va «axborot» kabi tushunchalar bilan birga qo'llanilmoqda.



Media ta'lim natijasida mediasavodxonlik faqat o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi yoki axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmaydi. Media ta'lim konsepsiyasiga kengroq qarash talab etiladi. Axborotdan samarali va tezkor foydalanishda talaba muayyan muammoni hal qilishda zarur bo'lgan ma'lumotlar turini aniqlay oladi, bu ma'lumotlarga samarali va tez kirishi mumkin; qiziqtirgan malumotlarga kirish uchun kalit so'z va tegishli atamalarni aniqlashi; potensial

axborot manbalarining turli xil turlarini, formatlarini aniqlashi va yana ko'plab ishlarni bajarishi mumkin.

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda «savodxonlik» an'anaviy yozish va o'qish kunikmalariga egalikni anglatuvchi tushuncha bilan chegaralanmaydi. Sanash, o'qish va yozish kunikmalarining ahamiyatini kamaytirmagan holda media va axborot savodxonligining fundamental kunikmalar tuplamiga kiritilishi, bugungi kunda yoshlar media va boshqa axborot yetkazib beruvchilarning (masalan, kitoblar media resurs sifatida xizmat kiluvchi kutubxonalarning) imkoniyatlarini bilishlari, shu bilan birga shaxsiy, jamoaviy, kasbiy faoliyatida hamda ta'lim olish maqsadlariga erishish uchun axborotni izlash, baholash, yaratish va qo'llay bilishlari kerakligini anglatadi.

Shunday ekan media savodxonlik uz ichiga kuyidagilarni oladi:

1. Estetik va kreativ kunikmalar media kontentni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin qilish qobiliyatini bildiradi. Media kontentni yaratish orqali yosh avlod mazkur kunikmalarni uzida shakllantirishi mumkin.
2. Interfaollik kunikmalari media vositasida muloqot qilish va turli media-rollarni bajarib kurish kobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Mazkur kunikmalarni ta'lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Interfaollik kunikmalari o'z fikr va qarashlarini ifoda etishga tayyorlikni ko'rsatadi.
3. Tanqidiy tahlil kunikmalari turli tahliliy vositalardan foydalangan holda, turfa xil media kontentni talqin qila olish va ahamiyatini tushunishni bildiradi. Ushbu kunikmalar rang-barang mediakontent va janrlarni o'rganish orqali yaxshiroq rivojlanadi;
4. Havfsizlik kunikmalari murakkab vaziyatlardan chiqish va ularni oldini olish qobiliyatida namoyon buladi. Virtual makondan havfsiz foydalanish, shaxsiy makonni himoya qilish hamda zararli kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi.

Talabalarni axborotning aqlli iste'molchilari bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularni resurslarni baholash va xavfsiz sog'lom raqamli suhbatlarda ishtirok etish qobiliyatiga ega kuchli raqamli fuqarolarni

shakllantirishga yordam beradi[4]. Tanqidiy fikrlash yordamida tahlil qilish va baholash. O'qituvchi yordamisiz duch kelganda, talabalar qaysi manba ishonchli ekanini qanday bilishadi? Ular You tube ni tomosha qilmoqdam, yangiliklar o'qiyaptimi yoki tasvirlarni tahlil qilyaptimi, talabalar ma'lumotni tushunish, uni kontekstga solish va haqiqiy yoki sohtani farqlay olish ko'nikmalariga muhtoj.

Shunday ekan talabalarni ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish va baholashda savollar berishga o'rgatishdir:

- Muallifi kim?
- Uning maqsadi nima? (xabar berish, ko'ngil ochish, ishontirish)
- Boshqa odamlar bu habarni qanday talqin qilishlari mumkin?
- Ba'zi tafsilotlar qoldirganmi? Nega?
- Shuningdek, o'ylab ko'ring: manbalar keltirilganmi? Grammatik va imlo xatolari bormi?

Bundan tashqari talabalarga o'zlari haqida o'ylashi uchun vaqt va imkoniyat berish, hamda ularga qanday savol berishni o'rgatish, ular ommaviy axborot vositalarini mustaqil ravishda tahlil qilish va baholashni o'rganishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqotlar insonlar mediadan uz qarashlari, qadriyatlar va his-tuyg'ulariga mos keladigan qarash va g'oyalarni tanlashga moyil ekanliklarini kursatdi.

Odatda, mediadan yonimizda hech kim yuqligida foydalanishimizga qaramay, biz baribir yagona hayoliy jamiyatda ishtirok etayotganimizni his qilamiz. Media vositasida insonlarda o'zaro birdamlik hissi mustahkamlanadi. Yoshlarga Internetdagi yangiliklar va boshqa axborotlarni "sog'lom" iste'mol qilish ko'nikmalarini singdirish, axborotni bir necha mediamanbalardan olish orqali axborotdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, feyklarni aniqlash va yangiliklarga oid onlayn-resurslarning ishonchliligini aniqlash bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun kutubxonachilar treninglar, ochiq ma'ruzalar, loyihaviy o'qitish tashkil etish, taqdimotlar, broshyuralar, plakatlar tayyorlash, veb-sahifalardagi maqolalar chop etish hamda ijtimoiy mediadagi materiallar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish zarur hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, erishilgan yutuqlar nuqtai nazaridan mediasavodxonlarning xususiyatlaridan ham, yuqorida keltirilgan mediasavodxonlarning xususiyatlari va ta'riflaridan ham quyidagi xulosalar chiqariladi. Media savodxonligi yuqori bo'lgan jamiyatlarda bu boradagi ijtimoiy ta'sir ancha yuqori darajada bo'lishi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Bu haqiqatdan tashqari bu ta'sirlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat bilan bir qatorda asr va texnologiya rivojlanishi bilan o'zgarish muqarrar ekanligi ko'rinadi. Ushbu o'zgarish jarayonining eng muhim ishtirokchisi bo'lgan inson, o'zgarishlarga moslashish va eng kam ta'sirga duchor bo'lish orqali hayotini saqlab qolish uchun asrning ehtiyojlaridan foydalanishi kerak. Shu bois media-axborot savodxonligi hamda media-ta'lim kontseptsiyasiga zamonaviy yondashuvlarni hisobga olgan holda bizni qiziqtirgan tushunchalarning ta'riflarini shakllantiramiz.

Ommaviy axborot vositalari orqali o'zlariga berilgan xabarlar ortidagi haqiqatdan bexabar bo'lgan bu odamlardan tashkil topgan jamiyatlar va davlatlar, oldinga intilish nuqtasida juda passivligi ko'rinib turibdi. Ham aloqa, ham axborot jihatidan kam bo'lgan bu mamlakatlarda o'sib-ulg'aygan odamlarning dunyoning o'zgarishi va o'zgarishi bosqichiga hissa qo'shishi kutilmagan holat sifatida ko'riladi.

Shuni alohida takidlash joizki, qadriyatlar haqida savollar berish, muayyan media-resurs tanlash haqida o'ylash, talabani ishonchli ma'lumotlarga yo'naltirish, ommaviy axborot vositalarining ommabopligi bilan bog'liq masalalarda yordam ko'rsatishimiz kerak. Media va axborot savodxonligi media-ta'lim natijasida yuzaga keladi. Mos ravishda, media-ta'lim ko'p yo'nalishli ta'lim majmuasi hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Media_savodxonlik
2. <https://www.waterford.org/education/build-media-literacy-in-your-students/>
3. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quvamaliy qo'llanma.-T.:Extremum-press, 2017

4.Mamatov.O Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik.psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari. Namangan, 2008.

5.Digital Factors Influencing the Use of Social Media in Political Communication Among Thai Youths K. Jitsaeng, K. Tuamsuk.

6. S.V.Belov. O'qitiladigan fanlar vositalaridan foydalangan holda talabalar o'rtasida axborot va media savodxonligini shakllantirish /, S. V. Belov, I. V. Belova // Tabiatshunoslikning dolzarb masalalari: V Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi: to'plam hisobot va ilmiy Art. – Ivanovo: Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining Davlat yong'in xizmati Ivanovo yong'in-qutqaruv akademiyasi, 2020. – P. 180-188.

7. O.P.Jilavskaya. Media va axborot savodxonligi o'zgaruvchan dunyoda yaxlit tushuncha sifatida. // Xalqaro elektron ilmiy-ta'lim jurnali "Media. Ma'lumot. Aloqa".<http://mic.org.ru/2016g/16-nomer-2016/562-medijnoinformatsionnaya-gramotnost-kak-tselostnoe-ponyatie-v-izmenyayushchemsya-mire>.